

**PRAGMATIKANI INGLIZ TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA  
O'QITISH**

*Qobilova Komila*

*Senior student, article, 2<sup>nd</sup> Department, Uzbekistan State World Languages  
University, Tashkent, Uzbekistan*

*Scientific advisor: Zebokhon Musayeva*

*EFL instructor, Integrated English Language Teaching Course, 4<sup>th</sup>  
Department Uzbekistan State World Languages University, Tashkent, Uzbekistan*

*Annotatsiya: Ushbu tadqiqot EFL o'quvchilariga pragmatikani o'rgatish masalalariga qaratilgan bo'lib, ingliz tili sinfxonasida pragmatikaning chet tili rolini o'rganadi. Shuningdek, u pragmatika atamasini batafsil ta'riflab, uning bir qancha tarmoqlari bilan haqiqiy misollarni keltirishni maqsad qilgan. Bundan tashqari, u ingliz tilini o'rganuvchilarga Pragmatikani o'rgatish muhimligini ta'kidlaydi va dars davomida ishlatilishi mumkin bo'lgan turli interfaol tadbirlarni taqdim etadi. Pragmatikani o'qitishning o'zgarmas ahamiyatiga qaramay, jarayon davomida haligacha hal qilinmagan muammolar mavjud. Shu sababdan ushbu tadqiqot ba'zi muammolarga ham yechimlarni taqdim etadi.*

*Kalit so'zlar: nutq aktlari, pragmatika o'qitishning muhimligi, issiq o'rindiq, rollar ijrosi, til kompetensiyasi*

**Kirish**

**Pragmatika tushunchasi**

“Pragmatika (yun. pragma, pragmatos — ish, harakat) — semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o'rganuvchi sohasi; boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini o'zlashtirib, undan foydalanuvchi sub'yektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o'rganuvchi fan tarmog'i. P. haqidagi asosiy g'oya amerikalik olim Ch. Pirs tomonidan o'rtaga tashlangan;

yana bir amerikalik olim Ch. Morris ushbu g'oyani rivojlantirgan va "P." terminini semiotika bo'limlaridan birining nomi sifatida amaliyotga kiritgan."<sup>1</sup> Wikipedia ma'lumotlariga asoslanadigan bo'lsak pragmatika tilshunoslikning muhim bir sohasi bo'lib, so'zlar va iboralarining tag ma'nosi, ya'nikim asl ma'nosini kontekstdan anglashga intiladi. Misol qilib kinoya, metafora, niyatlarni keltirishimiz mumkin. Pragmatikaning turli xil tomonlari mavjud, misol uchun nutq aktlari yoki nazarda tutilgan ma'no kabi. Pragmatika kontekstda ya'ni biron bir matn yoki nutqni tushunishning kalitidir va tilning o'zaro ta'sirini tushunishda asos vazifasini bajaradi. "Pragmatikasiz dunyoda siz nazarda tutgan narsangizni batafsil ipidan ignasigacha tushuntirishingiz kerak bo'lar, bundan tashqari jargon bo'lishi mumkin emas, ehtimol xazillar ham kulgili bo'lmas, va suhbatlar ikki uch baravargacham uzun bo'lgan bo'lardi."<sup>2</sup> Muloqotga ma'daniy kelib chiqish va odamlar tilidan foydalaniladigan ijtimoiy kontekst ta'sir ko'rsatadi. Siz yashagan millat, jamiyat, din, odob-axloq, fikrlash doirasi kabilarni aytishimiz mumkin. Pragmatik qobiliyat degan atama bu pragmatika haqidagi bilim va bu bilimlarni amalda qay darajada yaxshi qo'llaganiga qarab, o'sha odamning ham pragmatik qobiliyati yuqori sanaladi. Pragmatik ma'no esa nazarda tutilgan muammodir. Ya'ni gap ostida gap qabilida keladi. Misol uchun ma'ruzachilar har doim ham nimani nazarda tutayotganini to'g'ridan to'g'ri aytmaydilar va tinglovchilar har doim ham xabarning mo'ljallangan ma'nosini to'g'ri talqin qila olmaydilar. Unday bo'lsa, nega ma'ruzachilar hamma birdek tushunadigan tilda bor ma'lumotni yetkazmaydilar degan savol paydo bo'lishi tabiiy hol. Ba'zi hollarda to'g'ridan to'g'ri muloqot juda keskin sanaladi. Misol uchun, amerikaliklar ko'pincha yoshga oid savollarni juda to'g'ridan-to'g'ri berishadi. Biroq, ba'zi madaniyatlarda "Siz necha yoshdasiz?" keng tarqalgan savol, chunki u suhbatdoshlarga bir-biriga qanday murojaat qilishni tushunishga yordam beradi. Ba'zi madaniyatlarda ma'lum xabarlar odatda to'g'ridan-to'g'ri muloqot emas, balki pragmatika orqali yetkazilishi mumkin. Masalan, kimdir to'g'ridan-to'g'ri boshqa odamdan eshikni yopishni so'ramasdan,

---

<sup>1</sup> Abduvahob Madaliyev. Pragmatika.2022

<sup>2</sup> Tilshunoslikda pragmatika nima? 2023

[www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)

"bu yer sovuq ekan" deb aytishi mumkin. Hatto bir xil madaniyat va til guruhida ham odamlar kontekstga qarab tildan turli yo'llar bilan foydalanadilar.

Malakali kommunikator bo'lish uchun vaziyatni hisobga olgan holda qanday qilib to'g'ri muloqot qilishni bilishimiz kerak. "Diplomat ha desa, u "ehtimol" degan ma'noni anglatadi; U, ehtimol, deganida, u "yo'q" degan ma'noni anglatadi;

Yo'q desa, diplomat emas."<sup>3</sup> "Ushbu satrlar shuni ko'rsatadiki, turli xil vaziyatlarda turli xil ma'ruzachilar bu so'zlardan foydalangan holda turli xil narsalarni anglatishi mumkin. Bu qanday mumkin? So'zlarning ma'nosi o'rtasida qanday bog'liqlik bor, so'zlovchilar bu so'zlarni aytayotganda nimani nazarda tutadi, ularni talaffuz qilishning o'ziga xos holatlari, niyatlari, xatti-harakatlari va ular nimaga erisha oladi? Bu pragmatiklar javob berishga harakat qiladigan ba'zi savollardir. Taxminan aytganda, pragmatika sohasini tavsiflashga xizmat qiladigan savollar turidir."<sup>4</sup> "Petrov ta'kidlaganidek "Inson qaysidir tilga xos semantik bilimlarsiz so'zlashi yoki anglashi mumkin emas, ammo o'sha tilga xos semantik bilimlar egasi bo'lishning o'zi ushbu tilda so'zlash va anglash uchun kifoya qiladi degani emas, xuddi musiqali pyesa mazmuniy bilimlari uning ijrosi uchun yetarli bo'lmaganidek va buning uchun eng asosiysi o'yin mahorati, layoqatiga ham ega bo'lish lozim."<sup>5</sup> Tilni o'rganish sohasida pragmatikani semantika bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Semantika - bu so'zlarning ma'nosi va lingvistik konstruktsiyalarning o'ziga bevosita bog'liq bo'lgan ma'noni o'rganadigan fan, pragmatika esa kontekstdan kelib chiqadigan so'zlarning ma'nosini boshqaradi. Demak, pragmatika semantikadan bir qadam oldinda. Ular bir-birini to'ldiradi, pragmatikaning ishi semantika tugash nuqtasidan boshlanadi. Pragmatikani ingliz tili sinfxonasida o'rgatishning bir necha xil uslub va metodlari bor. Quyida bir nechtasini batafsil ko'rib chiqamiz.

**1. "Rollar ijrosi.** Xuddi shunday vaziyatni boshqa kontekstda namoyish eting. Masalan, aeroportda turli odamlar bilan salomlashish; turli odamlarga o'zingizni

---

<sup>3</sup> Volter. Eskandellida. 1993

<sup>4</sup> Pragmatics. 2019

<sup>5</sup> Sobirova Nasiba. Pragmatika va nutqning lingvopragmatik xususiyatlari. 2023

[www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)

yomon his qilayotganingizni aytish; turli odamlarga ovqatingizda pashsha borligini tushuntirish. Rol o'ynash, birovni qanday kutib olish; biror narsani tushuntirish; shikoyat qilish va talab qilish.”<sup>6</sup>

## **2. Character of hot seating (Issiq o'rindiq o'yini)<sup>7</sup>**

Ishtirokchi qahramon rolini o'z zimmasiga oladigan va savollarga javob beradigan drama texnikasi issiq o'tirish - pragmatikani o'rgatishning ajoyib usuli.

## **3. “Hikoya**

Farzandingizga pragmatik til ko'nikmalarini oshirishga yordam berishning usullaridan biri hikoya qilishdir. Hikoyani aytib berganingizda, ketma-ketlik, tavsif va tushuntirish kabi turli xil muloqot qobiliyatlaridan foydalanasiz.”<sup>8</sup> Hikoya orqali pragmatikani o'rgatish samarali va qiziqarli usul bo'lishi mumkin.

## **4. Nutq to'ldirish topshirig'i**

Nutqni to'ldirish topshirig'ida studentlar berilgan mashqdagi bo'sh joylarni pragmatik ifodalar bilan to'ldirishlari kerak bo'ladi. Misol keltiradigan bo'lsak “Ko'rsatmalar: Sizning sinfdoshingiz har doim guruh yig'ilishlariga kechikib keladi va guruhingiz taqdimotiga umuman yordam bermaydi. Sinfdoshingizga shikoyat qiling va uning savoliga javob bering:

Siz:

---

---

Sinfdosh: Jiddiy gapiryapsanmi? Men juda ko'p ish qildim deb o'ylayman. Boshqalar ham shunday deb o'ylarmikin?

Siz:

---

---

”<sup>9</sup>

Yana bir ssenariy sifatida quyidagini misol qilib olishimiz mumkun:

Siz sinfdan tadbir tashkil qilyapsiz, va siz yordamga muhtoj. Shu tufayli

---

<sup>6</sup> Victoria State Government. Pragmatics. 2020

<sup>7</sup> Victoria State Government. Pragmatics. 2020

<sup>8</sup> Mikee Larrabazal. 5 Everyday activities to improve pragmatic language skills in children.2023

<sup>9</sup> Amanda Hilliard. Twelve Activities for Teaching the Pragmatics of Complaining to L2 Learners. 2017

sinfdozingizdan yordam so'ramoqchisiz.

Siz: Yaqinda bo'ladigan tadbirga bir o'zim ulgura olmayabman. Menga bezashda qo'l uzata olasizmi? (Could you lend a hand?)

Sinfdozingiz javobi: ...

O'quvchilar savolga mos javobni topishlari bilan birga xushmuomilalik va qahramonlar o'rtasidagi munosabatlarni hisobga olgan holda javob berishlari kerak bo'ladi. Bu shakllarni to'ldirgandan so'ng shu ssenariylar asosida rol o'ynashlari mumkun. Bu orqali esa ingliz tilida xushmuomilalik bilan so'rashni mashq qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Quyida bu mashqni tuzganingizda e'tibor berishingiz kerak bo'lgan narsalar taqdim etiladi.

## **Pragmatikani o'rgatishda muammolar**

### **1. Pragmatikaning mavhumligi**

U ovoz ohangi, tana tili, madaniy me'yorlar va ma'ruzachilar o'rtasidagi munosabatlar kabi omillarni o'z ichiga oladi. Ushbu elementlar sub'ektiv va kontekstga bog'liq bo'lib, pragmatikani unchalik aniq emas va aniqlik bilan aniqlashni qiyinlashtiradi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, pragmatikaning mavhum tabiati uning qat'iy, universal qo'llaniladigan qoidalarga amal qilmasligi mumkin bo'lgan aloqaning dinamik va kontekstga bog'liq tomonlariga urg'u berishidan kelib chiqadi. Pragmatik kompetentsiyani tushunish tildan foydalanishda ushbu nozikliklarni tanib olish va harakat qilishni o'z ichiga oladi.

### **2. Madaniy jihatdan xilma-xillik**

“Turli me'yorlar va madaniy qadriyatlarni tushunish orqali o'quvchilar bir madaniyatda odobli bo'lgan narsa boshqasida xushmuomala bo'lmasligi mumkinligini tushunishga imkon beradi. Xuddi shunday, ba'zilar tomonidan odobli deb hisoblangan narsa boshqalar tomonidan odobli deb hisoblanmasligi mumkin. Pragmatik muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik uchun madaniyatlararo pragmatik bilimlarning muhimligi. Bunday nosozliklar ko'pincha farovonlik shartlari buzilganda sodir bo'ladi”<sup>10</sup> Pragmatik me'yorlar turli madaniyatlarda turli xil

---

<sup>10</sup>Dian Rianita. Cross-cultural Pragmatics and its challenges in EFL context. 2015  
[www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)

bo'lganligi sababli o'quvchilar o'z ona tilisi bo'lmagan tildagi ma'lum bir belgi va nutqni tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkun. "Madaniyatlararo muloqot bilan bog'liq yana bir holat shuni ko'rsatdiki, ingliz tilini o'rganuvchilar ko'pincha suhbatni to'g'ri yakunlay olmaydilar yoki yakunlay olmaydilar (Bardovi-Harlig, 1989). Hatto ingliz tilini ilg'or o'rganuvchilar ham ona tilida so'zlashuvchi suhbatni qachon yakunlayotganini, kerakli javoblarni taqdim etayotganini va tugatishni boshlaganini tan olishda qiynaladi. Vuryaningrumning tadqiqoti (2008) indoneziyalik talaba Jakartada ingliz tili o'qituvchisi (NS) bilan birinchi marta uchrashganini va ular quyidagicha suhbatlashganini ko'rsatdi:

NS: Siz bilan tanishganimdan xursandman.

---

NNS: Siz bilan ham tanishganimdan xursandman  
(biroz suhbatlashgandan keyin)

NS: Siz bilan tanishganimdan xursandman. (nutqni yopish niyatida) (NNS suhbatni davom ettirdi)

NS: Kechirasiz, men ketishim kerak."<sup>11</sup>

### **3. Og'zaki bo'lmagan muloqotning roli**

Pragmatika og'zaki bo'lmagan signallarni, tana tilini va yuz ifodalarini o'z ichiga oladi. Ushbu elementlarni o'qitishga kiritish, ayniqsa, og'zaki bo'lmagan muloqot cheklangan sinf sharoitida qiyin bo'lishi mumkin.

### **4. Sinfda o'quvchilar bilimining har xilligi**

Ma'lumki, maktab yoki o'quv muassasalarida sinfdagi barcha o'quvchilarning bilimi va pragmatic kompetensiyasi teng bo'lmaydi. Shu sababdan o'quvchilarga material tanlashda o'qituvchi uchun qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Masalan oddiy pragmatika konsepsiyasi tanlangan darsda bilimi yuqori o'quvchilar zerikib qolishlari ustiga ustak darsga bee'tibor o'tirishlarining ehtimoli katta. Boshqa tarafdin agar darsda o'tilayotgan pragmatic konsepsiya ba'zi bir o'quvchilarga

---

<sup>11</sup> Dian Rianita. Cross-cultural Pragmatics and its challenges in EFL context. 2015  
[www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)

qiyinlik qilsa buning teskarisi bo'lishi tabiiy bir holdir. Bundan eng yomoni o'quvchilarning darsga boshqa so'z bilan ingliz tiliga bo'lgan qarash va mulohazalari eng asosiysi qiziqishlariga ham katta ta'sir o'tkazishi mumkin.

### **Xulosa**

#### *1. O'quv maqsadlarini aniqlang:*

- Pragmatik ta'lim uchun o'quv maqsadlarini aniq belgilash. Talabalarda so'rov yuborish, fikr-mulohaza bildirish yoki mos xushmuomalalik strategiyalaridan foydalanish kabi o'ziga xos nutq harakatlari, til funktsiyalari va ijtimoiy ko'nikmalarni aniqlang.

#### *2. Madaniy sezgirlik:*

- Pragmatikaning madaniy jihatlarini ta'kidlash. Talabalarga pragmatik me'yorlar turli madaniyatlarda farqlanishi mumkinligini tushunishga yordam bering va muloqotga madaniy ta'sir ko'rsatadigan misollar keltiring. Madaniy sezgirlik va xabardorlikni rivojlantirish.

#### *3. Interaktiv tadbirlar:*

- Haqiqiy hayotdagi muloqotni taqlid qiluvchi interaktiv tadbirlarni o'z ichiga oling. Rolli o'yinlar, guruh muhokamalari va kommunikativ o'yinlar o'quvchilarga pragmatik ko'nikmalarni dinamik va qiziqarli tarzda mashq qilish va qo'llash imkonini beradi.

#### *4. Aniq ko'rsatma:*

- Pragmatik tushunchalar bo'yicha aniq ko'rsatmalar bering. Tildan foydalanishning ko'zda tutilgan ma'nolari, bilvositaligi va og'zaki bo'lmagan muloqotning roli kabi nozik tomonlarini aniq tushuntiring. Ushbu tushunchalarni kontekstda tasvirlaydigan misollardan foydalaning.

#### *5. Haqiqiy materiallar:*

- Darsliklarni haqiqiy materiallar bilan to'ldirish. Turli tillardan foydalanish va madaniy kontekstlarni aks ettiruvchi real hayot matnlari, videolar va audio kliplardan foydalaning. Bu o'quvchilarni haqiqiy til vaziyatlariga ochib beradi va sinfda o'rganish va real hayotda qo'llash o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga yordam beradi.

6. *Og'zaki bo'lmagan muloqot:*

- Pragmatikada noverbal muloqotning rolini ko'rib chiqing. Tana tili, yuz ifodalari va ovoz ohangi kabi og'zaki bo'lmagan belgilarni talqin qilish va ulardan foydalanishga qaratilgan faoliyatni o'z ichiga oladi. Ushbu belgilar samarali muloqotga qanday hissa qo'shishini ta'kidlang.

7. *Texnologiyaning roli:*

- Pragmatik ta'limni yaxshilash uchun texnologiyani integratsiyalash. Interaktiv tajribalarni ta'minlaydigan va o'quvchilarni turli xil aloqa kontekstlariga ta'sir qiladigan multimedia resurslari, onlayn simulyatsiyalar yoki virtual stsenariylardan foydalaning.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduvahob Madaliyev, Yo'ldosh Solijonov (2000). *Pragmatika*// Wikipediya ochiq ensiklopediya <https://uz.wikipedia.org/wiki/Pragmatika>

2. Amanda Hilliard (2017). *Twelve activities for Teaching the Pragmatics of Complaining to L2 Learners*// English Teaching Forum <https://www.jlls.org/index.php/jlls/article/download/4219/1236#:~:text=Nonverbal%20communication%20makes%20use%20of,%2C%20dance%2C%20drama%20and%20sculpture>

3. Dian Rianita (2017). *Cross-cultural pragmatics and its challenges in EFL context*// English Teaching Forum <https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1137786.pdf>

4. Georgia M.Green (1999) *The nature of Pragmatic Information*// Research Gate [https://www.researchgate.net/publication/2304345\\_The\\_Nature\\_of\\_Pragmatic\\_Information](https://www.researchgate.net/publication/2304345_The_Nature_of_Pragmatic_Information)

5. Luma Hasan Muhammaed (2021). *A pragmatic study of the verbal and non-verbal communication of the trump in some selected newspapers*// Journal of language and linguistic studies <https://www.jlls.org/index.php/jlls/article/download/>



[/4219/1236#:~:text=Nonverbal%20communication%20makes%20use%20of,%2C%20dance%2C%20drama%20and%20sculpture](#)

6. Mikee Larrazabal. *5 Every day Activities to Improve Pragmatic Language Skills in Children*//Better Speech. <https://www.betterspeech.com/post/5-everyday-activities-to-improve-pragmatic-language-skills-in-children>

7. *Tilshunoslikda Pragmatika nima?* (2023) <https://fayllar.org/tilshunoslikda-pragmatika-nima.html>

8. Victoria State Government (2020). *Literacy teaching toolkit: Pragmatics*// Victoria State Government Department of Education. <https://www.education.vic.gov.au/school/teachers/teachingresources/discipline/english/literacy/speakinglistening/Pages/litfocuspragmatics.aspx>